

5-7 SINF O'QUVCHILARINING MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Abjabbarova Dilafrō'z Baxtiyor qizi

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 5–7-sinf o'quvchilarining ma'naviy barkamolligini shakllantirishda tasviriy san'at fanining o'rne va ahamiyati tahlil etiladi. Tasviriy san'at nafaqat estetik didni, balki o'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat, tabiat va jamiyat go'zalligini anglash, insoniy fazilatlarni qadrlash kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi yoritiladi. Shuningdek, san'at darolarida o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, estetik idroki va badiiy dunyoqarashini boyitish orqali ularning ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, ma'naviyat, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, o'quvchi shaxsini rivojlantirish, milliy qadriyatlar, badiiy dunyoqarash, tarbiyaviy ahamiyat.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF FINE ART IN THE DEVELOPMENT OF SPIRITUALITY OF STUDENTS IN GRADES 5-7

Abstract: This article analyzes the role and importance of fine arts in the formation of the spiritual well-being of students in grades 5–7. It highlights that fine arts are an important factor in developing not only aesthetic taste, but also such spiritual and moral qualities of students as respect for national values, understanding the beauty of nature and society, and appreciation of human qualities. Also, methodological approaches are shown in art lessons that serve to enrich students' creative thinking, aesthetic perception, and artistic worldview, thereby helping them to mature as spiritually mature individuals.

Keywords: Fine arts, spirituality, aesthetic education, creative thinking, student personality development, national values, artistic worldview, educational significance.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ УЧАЩИХСЯ 5–7 КЛАССОВ

Аннотация: В статье анализируются роль и значение изобразительного искусства в формировании духовного благополучия учащихся 5–7 классов. Подчеркивается, что изобразительное искусство является важным фактором развития не только эстетического вкуса, но и таких духовно-нравственных качеств учащихся, как уважение к национальным ценностям, понимание красоты природы и общества, оценка человеческих качеств. Также показаны методические подходы на уроках изобразительного искусства, способствующие обогащению творческого мышления, эстетического восприятия и художественного мировоззрения учащихся, тем самым способствуя их духовному становлению как полноценных личностей.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, духовность, эстетическое воспитание, творческое мышление, развитие личности учащихся, национальные ценности, художественное мировоззрение, воспитательная значимость.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlarning mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashda adabiyot va tasviriy san'atning o'рни va ahamiyati juda katta ekanligi hammamizga ma'lum. Bu esa sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish, uning qamrovini keng olib borish hamda samaradorligini oshirish vazifasini qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va farmonlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi[1; 2; 3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy tarbiya masalasi o'zbek pedagogikasida qadimdan markaziy o'rin egallab kelgan bo'lib, bu borada tasviriy san'atning o'quvchilar shaxsini shakllantirishdagi roli ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida san'at va axloqiy tarbiyaning uzviy bog'liqligi, insonning ichki dunyosini go'zallik orqali boyitish g'oyasi ilgari surilgan. Muallif fikricha, san'at inson qalbini poklaydigan, unda ezgulik va go'zallik tuyg'usini uyg'otadigan muhim vositadir.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham bu fikr o'z tasdig'ini topgan. Xususan, O'zbekistonlik olimlardan M. Mamasodiqova, D. Rahimova, N. Yo'ldosheva va Sh. Toshpulatovalarning izlanishlarida tasviriy san'at darslarining tarbiyaviy imkoniyatlari, o'quvchilarda estetik idrok, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'рни chuqur o'rganilgan. Ularning

fikricha, tasviriy san'at o'quvchiga atrof-muhitni badiiy idrok etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni estetik shaklda his etish imkonini beradi.

Shuningdek, rus pedagogikasida L. S. Vygotskiy, B. M. Nemenskiy, N. A. Vetlugina singari olimlar bolalar estetik tarbiyasida badiiy faoliyatning psixologik mexanizmlarini tahlil qilib, ijodkorlik inson ma'naviy rivojining asosiy sharti ekanini ta'kidlaganlar. Ularning tadqiqotlari tasviriy san'atni shaxsning hissiy-intellektual rivojida hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari va ta'lim sohasidagi davlat dasturlarida ham o'quvchilarda ma'naviy yetuklikni ta'minlash, san'at va madaniyat orqali barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois maktab ta'lim tizimida, xususan, 5–7-sinflar bosqichida tasviriy san'at darslari o'quvchilar ma'naviy olamini boyitish, estetik idrokni shakllantirish va milliy o'zlikni anglashda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, tasviriy san'at tizimida o'quvchi va o'qituvchilarning o'рни katta bo'lib, uning maqsad va vazifalari jamiyatning umumiy talablari hamda o'quvchi-yoshlar rivojlanishining ehtiyojlariga muvofiq belgilanadi. Insoniyat tarixi davomida san'at jamiyatning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelgan. Tasviriy san'at turli davrlarda turlicha maqsadlarda qo'llanilgan bo'lsa-da, uning asosiy vazifasi bir xil – inson ruhiyatiga ta'sir qilish, qalbini uyg'otish, go'zallikni anglashga yo'naltirishdan iborat bo'lgan. Tasviriy san'at esa shu jarayonlarning markazida turadi.

Tasviriy san'at turlari:

- rasm;
- haykaltaroshlik;
- grafika;
- amaliy bezak san'ati kabi ko'plab yo'nalishlariga bo'linadi.

Tasviriy san'at turlarining barchasi insonning estetik didini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Har bir asar o'zida ma'lum bir davr ruhini, rassomning his-tuyg'ularini va insoniyat oldidagi ma'naviy

qadriyatlarni mujassam etadi[4]. Shuning uchun ham tasviriy san'at nafaqat ijod mahsuli, balki insoniyatning ma'naviy boyligini aks ettiruvchi bebaho merosdir.

Tasviriy san'at darsining vazifalari:

- o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash;
- o'quvchilarni estetik tarbiyalash;
- o'quvchilarni ta'limiy tarbiyalash;
- o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash;
- o'quvchilarni milliylik yuksaltirish;
- o'quvchilarni zamonaviylikni uyg'unlashtirish...

Tasviriy san'atning eng muhim jihatlaridan biri – insonni go'zallikka oshno qilishidir. Inson rasm, haykal yoki boshqa badiiy asarni tomosha qilarkan, undagi ranglar uyg'unligi, shakllar chiroyi va obrazlarning go'zalligidan zavqlanadi. Bu jarayon insonning estetik didini shakllantiradi[5]. Estetik tarbiya shaxsning ma'naviy kamolotida alohida ahamiyatga ega. Chunki, go'zallikni anglagan inson yomonlikka moyil bo'lmaydi, xunuklikdan uzoq bo'ladi. U hayotda ham uyg'unlik, tartib-intizom, poklik va chiroy izlaydi. Shuning uchun tasviriy san'at maktabgacha ta'limdan boshlab yosh avlod tarbiyasida keng qo'llanadi.

5-7 sinf o'quvchilarning tasviriy san'at darslarida ma'naviy boyligini oshirish. Tasviriy san'at xalqning tarixi va madaniyatini o'zida mujassam etadi. Masalan, qadimiy devoriy suratlar, naqshlar yoki haykallar orqali biz ajdodlarimizning dunyoqarashi, e'tiqodi va turmush tarzini bilib olamiz. Milliy tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali inson o'z tarixini anglaydi, milliy qadriyatlarini qadrlashni o'rganadi[6]. Bu esa uning ma'naviy boyligini oshiradi, millatparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi. Har bir xalqning tasviriy san'ati uning o'ziga xosligini ko'rsatib, dunyo madaniyatidagi o'rnini belgilab beradi.

Tasviriy san'at darslarida 5-7 sinf o'quvchilarining fikrlash va tasavvurni kengaytirish. Tasviriy san'at inson tafakkurini kengaytiruvchi vositadir. Har bir badiiy asar tomoshabinda o'ziga xos fikr va his uyg'otadi[7]. Bir rassom chizgan manzara boshqa kishiga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Bu esa insonni o'ylashga, tasavvur qilishga, yangi g'oyalar topishga undaydi. Masalan, tabiat manzarasi tasvirlangan suratga qaragan odam hayotning go'zalligini his qiladi, uni asrash

haqida o'ylaydi. Tarixiy obrazlar esa kishini o'z ajdodlari bilan faxrlanishga undaydi. Shu tariqa tasviriy san'at inson tafakkurini boyitadi va uni hayotga kengroq nigoh bilan qarashga o'rgatadi.

Tasviriy san'at darslarida 5-7 sinf o'quvchilarining axloqiy va ruhiy tarbiya. Tasviriy san'at asarlari inson qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otadi[8]. Ularni tomosha qilish jarayonida kishida mehr-shafqat, insonparvarlik, do'stlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar shakllanadi. Bu esa axloqiy tarbiyaning muhim qismi hisoblanadi.

XULOSA

Tasviriy san'at – o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega ekanligi izlanishlarimizda o'z isbotini topdi. U estetik didni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, tafakkurni kengaytirish, axloqiy va ruhiy tarbiyani yuksaltirishga xizmat qilishi isbotlandi. Bundan tashqari, tasviriy san'at o'quvchilarning ruhiyatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatib, qalbni tozalash va boyitishda muhim vosita hisoblanishiga amin bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-son qaroriga
4. Andullayev N. "San'at tarixi". T.; «San'at» 2001.
5. Abdirasilov S.F., Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.; Fan texnologiya, 2012, 232 bet.
6. Abdirasilov S.F., Tasviriy san'at fanining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari bo'yicha (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, (Tasviriy san'at) yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) O'quv-uslubiy majmua T., 138-bet.
7. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A., Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.; «Fan va texnologiyalar» Nashriyot 2008.
8. Pulatov D. Tasviriy san'at tarixi (Qadimgi dunyo san'ati) N., O'quv-uslubiy qo'llanma 2018, 94-bet.